Translation Techniques as an Integral Part of Foreign Language Teaching and Learning: Benefits and Potential Issues	1958
Yusupova Nargiza Abdulxafizovna	
Использование интерактивных методов обучения русскому языку в медицинском вузе.....	1963
Бекмуратова Умида Аманбаевна	
Nogironligi bo'lgan bolalarda adaptiv jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining sog'liqni saqlashdagi o'rni.....	1967
Namozova Nargiza Husniddin qizi	
The Importance of the Theoretical Basis in Educating Preschool Children in the Spirit of National Education Within the Family.....	1971
Rakhmonova Diyora Utkir's daughter	
Kurash mashg'ulotlarida sportchilarning funksional tayyorgarligini oshirishda individual yondashuvning ilmiy asoslari.....	1976
Nurullayev Abduxoliq Qaxxorovich	
Voleybol mashg'ulotlarida funksional tayyorgarlikni oshirishda individual yondashuvning ilmiy asoslari ...	1980
Davulov Ozodbek Qalandarovich	
18–21 yoshdagi talaba futbolchilarni kompleks tayyorlashning nazariy va uslubiy jihatlari.....	1984
Djemilov Temur Rasimovich	
Oilaviy nizolarning bolalar psixikasiga ta'siri.....	1989
Tulyaganova Dilnoza Ravshanbekovna	
Boshlang'ich maktab yoshidagi (6–8 yosh) chap qo'li dominant bo'lgan bolalarning psixologik rivojlanishi va xususiyatlari	1993
Usmanova Sevara Akmalovna	
Matematika fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar orqali darsni qiziqarli va samarali qilish usullari ...	1996
Abdullayev G'ayratjon Mutalipovich	
Entropiya o'lchovlarining nazariy asoslari: Shannon, Reyni va Tsallis entropiyasi taqqoslamasi.....	2001
Ovxunov Iqboljon Abdunabiyeovich, Abdurashidov Saydullo Xayrullo o'g'li	
Sun'iy intellekt vositalari asosida kiberijtimoiylashuv samaradorligini oshirishning pedagogik sharoitlari va monitoring mexanizmlari.....	2007
Istamova Dilnoza Norboyevna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida kompetensiyaviy yondashuvga tayanib ta'lim mazmunini boshqarish	2012
Turaxujayeva Madina Norpulatovna	
Para armrestlingchi talabalarni musobaqa oldi texnik tayyorgarligini takomillashtirishda kuch sifatining o'rni	2015
Karimov Faxriddin Xurramovich	
Yengil atletika sportchilarida yadro itqitish harakati biomexanik ko'rsatkichlarining texnik samaradorlikka ta'siri	2019
Djabbarov Axror Islomovich	
Tinchlik madaniyati konsepsiyasining evolyusiyasi: klassik va zamonaviy falsafa	2023
Abdumalikov Ilimjon Abduxamjonovich	
Talabalarning muammoga asoslangan topshiriqlar orqali kognitiv mustaqilligini rivojlantirish: mohiyat va mazmun	2028
Abduvaliyev Nurillo Abdujalilovich	
Oliy ta'lim muassasasi pedagoglari innovatsion faoliyatining ijtimoiy psixologik xususiyatlari	2032
Almardanova Salomat Bobonazarovna	

Kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish zarurati	2035
Ashirov Abdurashid Ravshanovich	
Pedagogik ta'lim klasteri tizimi asosida maktab laboratoriya innovatsion loyihasini amalga oshirishning o'ziga xosligi	2040
Azimova Odinaxon Abduqodir qizi	
Talabalarda algoritmik kompetentlikni rivojlantirishning sun'iy intellekt va Big Data Analytics asosida o'quv faoliyatini real vaqt rejimida kuzatuvchi va boshqaruvchi konseptual modelni takomillashtirish.....	2043
Kayumova Nazokat Rashitovna	
Uzluksiz ta'lim tizimida texnologiya fanini o'qitish samaradorligini oshirishning metodik asoslari	2049
Kurbanov Baxrom	
Ingliz tilida o'qitish vositasi sifatida monologlardan foydalanishning muvaffaqiyatli strategiyalari	2053
Madaminova Nilufar Madrasulovna	
Raqamli texnologiyalar davrida o'quvchilarning psixologik xavfsizligini ta'minlash muammolari	2056
Mahmudov Dilmurod Rahmatjonovich	
Gamifikatsiya va STEAM texnologiyalarini joriy etish orqali boshlang'ich ta'limda inklyuziya va teng imkoniyatlarni ta'minlash	2059
Mamadjanova Diloromxon Baxtiyor qizi	
Talabalarining tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda raqamli kompetensiyalarning roli.....	2064
Mamarasulova Zulayho Abdullayevna, Toshmatov Sardorbek Shahobiddinovich	
Maktab yoshidagi o'quvchilarda suzish mashg'ulotlari orqali jismoniy rivojlanish va funksional tayyorgarlik ko'rsatkichlarini oshirish metodikasi.....	2067
Mengliqulov Xayrullo Aliqulovich	
O'quv jarayonida "Data Science" elementlarini integratsiyalashning didaktik imkoniyatlari	2072
Mo'minova Dilnavoz Komilovna	
Muloqot kompetensiyasining pedagogik-psixologik mazmuni va rivojlanish omillari.....	2077
Narbayeva Malohat Xudayberdiyevna	
O'g'il va qiz bolalarda gender tasavvurlarning shakllanishida ota-onaning liderlik maqomining roli.....	2080
Odina Otajonova	
Yarimo'tkazgichlar fizikasi fanini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy asoslari	2084
Oromiddinov Sardorbek Botirovich	
Yangi O'zbekistonda ta'limni rivojlantirishda media vositalardan foydalanish metodlari	2089
Qobilov Vohidjon Asliddin o'g'li	
Inklyuziv ta'limda pedagoglarni tayyorlashning zamonaviy tendensiyalari va innovatsion yondashuvlar ...	2092
Qodirova Feruza Usmanovna	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida o'yinli texnologiyalardan unumli foydalanishning roli.....	2095
Sobirova Bonu Matkarimovna	
Kichik yoshli bolalarning olamni idrok etishlarida oila tarbiyasining ahamiyati	2099
Sobirova Fotimaxon Baxodir qizi, G'aniyeva Shodiya Azizovna	
Talabalarining tadqiqot faoliyatini rivojlantirishda raqamli kompetensiyalarning roli.....	2102
Mamarasulova Zulayho Abdullayevna, Toshmatov Sardorbek Shahobiddinovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning didaktik tizimi	2105
Ulug'berdiyeva Dilbar Qarshibekovna	
Kurashchi qizlarning texnik harakatlarining kinematik va kinetik modellashtirish	2109
Xomudjonova Feruza Komiljon qizi	
Lingvokulturologiya va kommunikativ yondashuv integratsiyasi asosida talabalarda ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirish.....	2114
Y. T. Umarova	
Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatda kasbiy barqarorligini ta'minlovchi psixologik omillar	2118
Yakubova Manzura Abduraxmonovna	
Integratsiyalashgan darslar orqali talabalarining kreativ salohiyatini rivojlantirish	2121
Yaxyayeva Umida Sharifovna	
Tibbiyot oliy ta'limida "O'zbekiston tarixi" fanining amaliy komponentini kuchaytirish: klinik-ijtimoiy kontekst orqali o'qitish modeli	2125
Yulchiyeva Gulnozaxon Shuxratbek qizi	
Radiatsion fonning inson hayot faoliyatiga ta'siri mavzusini o'rganishning pedagogik ahamiyati	2130
Sodiqov Murod Naimovich	



Talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda zamonaviy jismoniy tarbiya metodlarining samaradorligi	2134
Tashpulatov Farxad Alisherovich	
“Arba’in” asarida qit’alarning vazniy xususiyatlari.....	2140
Eshniyazova Maysara Beknazarovna	
Guruhiy loyihalar orqali bolalarda hamkorlik va muloqot ko’nikmalarini tarbiyalash.....	2145
Negmatova Sanobar Qarshiboyevna	
Sport takomillashuv gurugidagi futbolchilarni o’yinga yo’naltirilgan mashg’ulotlar orqali musobaqaga tayyorgarlikni takomillashtirish	2149
Mamatramov Anvar Chorshanbiyevich	
Oliy ta’lim raqobatbardoshligining ta’lim sifatini oshirishdagi roli	2155
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
Sharq donoligi va zamonaviy ta’lim uyg’unligi	2162
Djurakulova Adolat Xolmuratovna	
The Role of Artificial Intelligence in Teaching English as a Foreign Language	2165
Babayeva Komila Rishatovna	
Zaif eshituvchi bolalarga tasviriy san’atni o’rgatishning metodik asoslari (miniatyura misolida).....	2169
Buharbayev Muxtar Yusupovich	
Bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining axloqiy va estetik madaniyatini takomillashtirish: maxsus yondashuvlar	2172
Do’schanova Nafosat Norimonovna	
Boshlang’ich sinf o’quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari	2176
Fayzullayeva Feruza Raxmatovna	
Bo’lajak o’qituvchilarda kommunikativ madaniyatni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	2179
Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi	
Dialekt va adabiy til: o’zaro munosabat.....	2183
Jumanazarova Guljahon	
Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabalariga kommunikativ kompetensiyalarni o’rgatishda interaktiv ta’lim texnologiyalar.....	2187
Kimsanboyeva Ruxsoraxon Ziyodbek qizi	
Pedagogik nizolarni hal etishda bo’lajak o’qituvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari	2190
Norjon Jamilova Abduxoliq qizi	
Abu Nasr Farobiy asarlari asosida talabalarni boshqaruv madaniyatini rivojlantirish.....	2194
Shamsiyeva M. R.	
O’smirlarda affiliatsiya motivini shakllantirishning pedagogik-psixologik determinantlari	2196
Tojiboyeva Gulxumor Raxmanjanovna, Saidova Maftuna Xakim qizi	
Преподаватель - русист в современной национальной школе: личный опыт и методические находки	2200
Хамидова Гулноза Турсунбаевна (Турсунбой кизи)	
Цифровизация в дошкольном образовании: механизмы управления для повышения качества	2204
Иногамова Д. О.	
Bolalar serebral falajida bolalarning pedagogik, tibbiy va ijtimoiy reabilitatsiya kompleksida – logopedik korrektsiya.....	2210
Xusniddinova Barno Xodjiakbarovna	
Maktab ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish maqsadlari va chora-tadbirlari	2214
Ma’rifat Abdullayeva	
Tarbiyasi qiyin o’smirlar bilan ishlashda xatti-harakatlarning buzilishi va xarakter nuqsonlarining oldini olish hamda tuzatishning ilmiy asoslari.....	2218
Mamayusupova Iroda Xamidovna	
Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalarda nutqni tekislashda multimodal ta’lim texnologiyalarining o’rni	2224
Xodjabekova Surayyo Abduganiyevna	
Maktabgacha ta’lim tashkilotida eko-art loyihalari	2229
Mamatova Xusnora Eshquvatovna	
Влияние искусственного интеллекта на развитие личности детей старшего возраста	2232
Матчанова Камила Фарход кизи	

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin orqali ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish.....	2237
Nazarova Asila Mamarasulovna	
The Concept of Oral Speech Skills and Age- and Ability-Related Characteristics of School Students (Grades 5–6).....	2241
Rustamova Khurshida Yusupovna	
Akmeologik yondashuv asosida pedagogika fanini transformatsiya qilishda innovatsion texnologiyalarning o'rni.....	2245
Xusayinova Go'zal Abdurasulovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi.....	2249
Qo'chqarova Mahmuda Adhmovna	
Fasilitatsion yondashuv asosida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish	2252
Xoshimova Gulnoza Lukmonovna, Abduraimova Nilufar Baxtiyorjon qizi	
Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanib maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish	2255
Qayimova Nargiza Rahmatqul qizi	
Talabalarda korrupsiyaga nisbatan murosasiz madaniyatni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari ...	2259
Axmedova Dilnora Kobiljonovna	
Bo'lajak o'qituvchilarni professional nutq madaniyati bo'yicha tayyorlash innovatsiyalari	2262
Ismoilov Temurbek Islomovich	



MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA O'YIN ORQALI TA'LIM-TARBIYA JARAYONINI TASHKIL ETISH

UDK:373.2:37.091.3

Nazarova Asila Mamarasulovna

Namangan viloyati pedagogik mahorat markazi,
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari
kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin faoliyatining pedagogik ahamiyati, o'yin orqali ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish yo'llari hamda bolalar rivojida o'yinning tutgan o'rni ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, didaktik, syujetli-rolli va harakatli o'yinlarning tarbiyaviy hamda rivojlantiruvchi imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, o'yin faoliyati, ta'lim-tarbiya, didaktik o'yinlar, bolalar rivoji.

Abstract: This article scientifically examines the pedagogical significance of play activities in preschool educational institutions, effective ways of organizing the educational and upbringing process through play, as well as the role of play in children's development. In addition, the educational and developmental potential of didactic, role-playing, and active games is analyzed.

Key words: preschool education, play activity, education and upbringing, didactic games, child development.

Аннотация: В статье научно раскрывается значение игровой деятельности в организациях дошкольного образования, пути эффективной организации учебно-воспитательного процесса посредством игры, а также роль игры в развитии детей. Кроме того, проанализированы воспитательные и развивающие возможности дидактических, сюжетно-ролевых и подвижных игр.

Ключевые слова: дошкольное образование, игровая деятельность, обучение и воспитание, дидактические игры, развитие детей.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida yosh avlod tarbiyasining birinchi va muhim bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish masalalari doimo dolzarb bo'lib kelmoqda. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, barcha sohalar qatori ta'lim-tarbiya sohasida ham tub ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan, respublikamizda maktabgacha ta'lim rivojining asosiy yo'nalishlari, maqsad va vazifalari hamda tamoyillarini belgilab beruvchi muhim konseptual yondashuvlar shakllandi. Ushbu yondashuvlarda maktabgacha ta'limni rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari, ta'lim sifatini oshirish va bolalar rivojini ta'minlash masalalari ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda ta'lim tizimiga, jumladan, maktabgacha ta'lim tizimiga ham yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar jadal kirib kelmoqda. Ushbu texnologiyalarning mazmun-mohiyatini, asosiy tamoyillarini, qonuniyatlarini hamda ulardan samarali foydalanish yo'llarini amaliyotchi tarbiyachi va o'qituvchilarga yetkazib berish pedagogika fani oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Ma'lumki, bolalarning asosiy vaqti o'yin bilan o'tadi. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishida muhim vosita bo'lib, ularning yetakchi faoliyati hisoblanadi. O'yin jarayonida bola shaxsi faoliyat subyekti sifatida namoyon bo'ladi. O'yin qadimdan mashhur olimlar, pedagog-psixologlar, faylasuflar, sotsiologlar, etnograflar va madaniyat arboblari diqqatini o'ziga jalb qilib kelgan.

O'rta Osiyo madaniyati tarixiga nazar soladigan bo'lsak, oilada farzand tarbiyasiga katta e'tibor qaratilganini ko'rish mumkin. Mashhur allomalardan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib hamda Ahmad Yugnakiy o'z asarlarida xalqimizga xos bo'lgan farzand tarbiyasi masalalariga alohida to'xtalganlar. Xalq pedagogikasini o'rganish jarayonida olimlarning farzand ta'lim-tarbiyasi va odob-axloqqa oid qarashlarida bolalarni tarbiyalashda eng ta'sirchan uslublardan biri sifatida o'yin shaklidan keng foydalanilganini kuzatish mumkin.

Ta'limiy o'yinlar musiqa asboblari chalish, qo'shiqlar kuyish, she'r aytish, raqsga tushish, o'yin o'ynash, videolar tomosha qilish hamda qo'l mehnati vositasida turli buyumlar yasashni o'z ichiga oladi. Bola tabiatan



qiziquvchan bo'lib, u atrof-olamni o'rganishda barcha sezgi tuyg'ularini faol ishga soladi. O'yin bolaning eng asosiy va sevimli mashg'uloti bo'lganligi sababli, bolaga atrof-muhit va undagi zarur bilim hamda ko'nikmalar o'yin vositasida tanishtirib borilsa, ularni o'zlashtirish samaradorligi bir necha barobarga oshadi. Shu bois ota-ona va tarbiyachi-murabbiylar bolalarda imkon qadar ko'proq o'yin orqali o'rganishga bo'lgan qiziqishni qo'llab-quvvatlashlari lozim. Aynan o'yin jarayonida bolalar ta'lim oladi va o'z iqtidorlarini kashf etadi. Bunga erishishda sezgi organlarini faollashtiruvchi muhitni, jumladan, vizual, eshitish va kinestetik faol ta'lim turlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'limiy o'yinlar rangli ko'rgazmalar, kartalar, musobaqalar, rolly o'yinlar hamda turli shakllar yasash kabi faoliyatlarni o'z ichiga olib, bolalarning jismoniy va aqliy rivojlanishini ta'minlovchi eng samarali usullardan biri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyat turlaridan biri bo'lgan o'yin nihoyatda universal, ko'p qirrali va qudratli faoliyat bo'lib, ushbu jarayonda bolaning barcha jismoniy va psixik jihatlari izchil ravishda rivojlanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta'lim tizimida o'yin faoliyatining pedagogik ahamiyati masalasi mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Qodirova, Toshpo'latova va A'zamovaning "Maktabgacha pedagogika" asarida o'yin maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yetakchi faoliyat turi sifatida talqin qilinib, u orqali bolalarning bilish jarayonlari, nutqi va ijtimoiy ko'nikmalari shakllanishi asoslab berilgan. Yusupova tomonidan yoritilgan maktabgacha tarbiya pedagogikasi masalalarida ham o'yin ta'lim-tarbiya jarayonining tabiiy va samarali vositasi sifatida e'tirof etiladi, bunda o'yin bolaning yosh va psixologik xususiyatlariga mos metod sifatida baholanadi.

Maktabgacha ta'limni davlat siyosati darajasida metodik jihatdan ta'minlash masalalari "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida o'z ifodasini topgan. Ushbu dasturda o'yin orqali ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish bolani har tomonlama rivojlantirishning asosiy sharti sifatida ko'rsatiladi. Akbarova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o'yin metodlarining, xususan, til o'rgatish jarayonidagi samaradorligi ilmiy asosda tahlil qilingan bo'lib, o'yinli mashg'ulotlar bolalarda nutq faolligi va motivatsiyani oshirishi isbotlangan.

Zaynutdinova va Mavlonov tadqiqotlarida zamonaviy texnologiyalar, jumladan, ovozli interfeyslar orqali nutqni rivojlantirish masalalari yoritilib, bu yondashuvlar o'yin elementlari bilan uyg'unlashganda yanada samarali natija berishi ta'kidlangan. Valiyeva va Qurbonov tomonidan ta'lim tizimidagi uzviylik masalalari tahlil qilinib, maktabgacha ta'lim bosqichida o'yin asosida shakllangan ko'nikmalar keyingi ta'lim bosqichlari uchun muhim poydevor bo'lib xizmat qilishi asoslab berilgan. Kalmuratov tadqiqotlarida esa maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarishda samaradorlik masalalari ko'rib chiqilib, ta'lim sifatini oshirishda innovatsion va rivojlantiruvchi yondashuvlarning ahamiyati qayd etilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin orqali ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning pedagogik samaradorligini aniqlash maqsadida bir qator ilmiy-tadqiqot usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ma'lumotlar asosan pedagogik kuzatuv, suhbat, hujjatlarni tahlil qilish hamda tajriba-sinov faoliyati orqali to'plandi. Pedagogik kuzatuv usuli yordamida bolalarning o'yin jarayonidagi faolligi, muloqot darajasi va bilish faoliyatidagi o'zgarishlar aniqlandi. Suhbatlar tarbiyachilar va mutaxassislar bilan o'tkazilib, o'yin metodlaridan foydalanish bo'yicha amaliy tajribalar o'rganildi. Shuningdek, amaldagi o'quv dasturlari va metodik qo'llanmalar tahlil qilinib, o'yin faoliyatining ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rni baholandi. Olingan ma'lumotlar sifat jihatdan tahlil qilinib, umumlashtirish va taqqoslash usullari asosida xulosalar chiqarildi. Tadqiqot natijalarini tahlil qilish jarayonida o'yin orqali tashkil etilgan mashg'ulotlarning bolalarning rivojlanishiga ijobiy ta'siri aniqlanib, ularning pedagogik ahamiyati ilmiy asoslandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'yin bolalar organizmining tabiiy ehtiyojdir, u bolalar uchun tashqi muhit bilan tanishish usuli sifatida yuzaga keladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik yosh xususiyatlari ularda o'yin faoliyatining salmoqli o'rin tutishini, ular bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarni turli o'yinlar vositasida tashkil etish samarali bo'lishini ko'rsatadi. O'yin faoliyati asosida boladagi bilish faoliyati rivojlanadi: bola qancha yaxshi o'ynasa, maktabda shunchalik yaxshi o'qiydi. Shu bois maktabgacha yoshdagi bolalarga xorijiy til leksikasini o'rgatishda ham o'yinning ahamiyati katta va muhimdir.

Ma'lumki, bolalarning o'yinlari asosan kattalarning ish-harakatlariga va hayotiy urf-odatlariga maxsus tarzda taqlid qilishdan iborat. Bolaning o'yin faoliyatini uning boshqa shakldagi faoliyatlaridan ajratib turuvchi mezon shundan iboratki, o'yinda u xayoliy vaziyatni yaratadi. Bolalarning boshqa yosh guruhlaridan farqi xayoliy vaziyatlarni yaxshi tushunishi va bunday vaziyatlarni yaratishga moyil bo'lishlaridadir. Psixolog olim



L. S. Vigotskiy ta'kidlaganidek, bolalar o'yinining o'ziga xosligi shundaki, u amalda bajara olmaydigan istaklarni xayolda amalga oshiradi.

Bolalarni turli mazmunli o'yinlarga va izlanishga rag'batlantirish ularning jismonan, aqlan hamda his-tuyg'ular borasida kamol topishlari va bilim olishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. O'yin bolaning shaxsiy tashabbusiga ko'ra vujudga keladigan, o'zining faol, ijodiy yo'sindagi, yuksak ta'sirchanlik ruhi bilan ajralib turadigan erkin va mustaqil faoliyatidir. Inson hayotida o'yin faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi: shaxsning muayyan faoliyatga qiziqishi ortadi; muloqot madaniyatini egallashga yordam beradi; shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratadi; hayotda va o'yin jarayonida yuzaga keladigan turli qiyinchiliklarni yengishga tayyorlaydi hamda mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalarini hosil qiladi; shaxsning ijobiy xislat va fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi.

Demak, o'yin bolalar hayotidagi nihoyatda ko'p qirrali faoliyat bo'lib, unda bolalarga xos bo'lgan mehnat, narsalar haqida tafakkur qilish, san'at, xayol, dam olish va xushchaqchaqlik kabi jarayonlarning barchasi mujassamlanadi. Shu sababli o'yin bolalar ehtiyojlariga mos, to'laqonli hayotni ta'minlay oladi. O'yin tashqi muhitdagi narsa va hodisalarni bilish vositasigina emas, balki qudratli tarbiya vositasi hamdir. Maktabgacha tarbiya konsepsiyasida ta'kidlanishicha, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim va tarbiya bolaning asosiy faoliyati bo'lgan o'yin tarzida olib borilishi zarur.

Ijodiy va syujetli o'yinlarda bolalarning barcha psixik jarayonlari bilan bir qatorda individual (shaxsiy) xislatlari ham shakllanadi. Shu nuqtayi nazardan, o'yin maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim-tarbiya ishlari orasida eng asosiy, markaziy o'rinda turadi. Bunda har bir o'yin turi alohida ahamiyat kasb etadi. O'yin bolalar nutqining rivojlanishi va boyishiga yordam beruvchi muhim vosita hisoblanadi. Rolli o'yinlar muayyan sohaga oid so'zlarni o'zlashtirishga hamda o'z fikrini mustaqil ravishda bayon etishga o'rgatadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik yosh xususiyatlari ular o'yin faoliyatining alohida o'rin tutishini, ular bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonini turli o'yinlar vositasida tashkil etish samarali bo'lishini ko'rsatadi. O'yin faoliyati asosida boladagi bilish faoliyati rivojlanadi: bola qancha yaxshi o'ynasa, maktabda shunchalik yaxshi o'qiydi. O'yin bolalar nutqining rivojlanishi va boyishiga yordam beruvchi muhim vosita bo'lib, syujetli-rolli o'yinlar ma'lum bir sohaga oid so'zlarni o'zlashtirishga va o'z fikrini mustaqil bayon etishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin orqali ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy maqsadi bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun tabiiy, qulay, jozibador va rivojlantiruvchi muhit yaratish, uning shaxsiy imkoniyatlarini maksimal darajada yuzaga chiqarishdan iborat. Bu maqsad o'yin faoliyatining bolalar rivojlanishidagi yetakchi o'rni bilan bevosita bog'liqdir, chunki o'yin maktabgacha yoshdagi bolalar uchun nafaqat ko'ngilochar mashg'ulot, balki bilim olish, jismoniy rivojlanish, nutq shakllanishi, ijtimoiylashuv va ijodiy tafakkur rivoji uchun asosiy mexanizm vazifasini bajaradi. Maktabgacha yoshdagi bola atrof-muhitni aynan o'yin jarayoni orqali o'rganadi: u tasavvur qiladi, qiyoslaydi, sinaydi, yangi harakatlarni bajaradi, muloqotga kirishadi va xatolardan o'rganadi. Shu bois ta'lim jarayonini o'yin shaklida tashkil etish pedagogik jarayonni bolaning tabiiy ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirishni anglatadi.

1. O'yin bolalar rivojlanishining psixologik qonuniyatlariga mos keladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishi psixologlar tomonidan aniqlangan muhim qonuniyatlarga tayyanadi. Ushbu qonuniyatlar o'yinning bola psixik faoliyatining yetakchi turi ekanini, u orqali bola atrof-muhitni o'zlashtirishi, bilim olishi, munosabatlar o'rnatishi va shaxs sifatida shakllanishini ko'rsatadi. O'yin bolaning psixik rivojlanish jarayonini tabiiy, bosqichma-bosqich va izchil tarzda faollashtiradigan eng qulay mexanizm hisoblanadi.

1.1. O'yin psixik jarayonlarning shakllanishini tezlashtiradi.

Maktabgacha yosh psixik jarayonlar jadal rivojlanadigan davr bo'lib, bu davrda bola ongida diqqat, xotira, tasavvur, fikrlash, idrok va nutq kabi funksiyalar shakllanadi. Ushbu jarayonlarning tabiiy rivojlanish mexanizmi o'yin faoliyati bilan bevosita bog'liqdir, chunki o'yin bolani faol harakatga, mustaqil fikrlashga, muloqot va emosional tajribaga undaydigan eng qulay va tabiiy ta'limiy muhit hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin asosida ta'lim-tarbiya jarayonini olib borish bolalarning psixologik, pedagogik va fiziologik rivojlanish qonuniyatlariga tayangan holda tashkil etiladigan murakkab, ammo nihoyatda samarali pedagogik faoliyatdir. Mazkur jarayonni to'g'ri yo'lga qo'yish uchun bir qator muhim vazifalarning izchil amalga oshirilishi talab etiladi.

Rivojlantiruvchi o'yin muhitini yaratish ta'lim jarayonining poydevori hisoblanadi. Buning uchun guruh xonalarini "o'yin markazlari" (konstruksiya, rolly o'yinlar, kitob markazi, san'at, sensorika, matematika va tabiat burchagi) bo'yicha ajratish, har bir markazni yoshga mos, xavfsiz va bolani jalb qiladigan materiallar bilan boyitish, erkin o'ynash, mustaqil tanlash va harakatlanish imkonini beruvchi qulay makonni tashkil etish zarur. Bunday muhit bolani o'yin faoliyatiga faol jalb qiladi va uning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi.



O'yin orqali ta'limiy maqsadlarga erishish ta'lim jarayonining mazmunini bola uchun qiziqarli, tushunarli va oson qabul qilinadigan shaklga keltiradi. Didaktik o'yinlar orqali rang, shakl, son, atrof-muhit, tovush, vaqt va fazo tushunchalarini o'rgatish, matematik, nutqiy, ekologik va jismoniy tarbiya bo'yicha bilimlarni o'yin shaklida berish hamda o'yin jarayonini integratsiyalash ta'lim samaradorligini oshiradi va bolalar bilimni tabiiy yo'l bilan o'zlashtirishiga xizmat qiladi.

O'yin bolalarning psixik jarayonlarini rivojlantirishda eng samarali vosita hisoblanadi. Ushbu jarayonda diqqatning barqarorligi va ko'lam, xotiraning ixtiyoriy va ixtiyorsiz shakllari, tasavvur va fantaziya, mantiqiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati, idrokning aniqligi hamda nutq jarayonlari izchil rivojlanadi. Bu esa bolaning intellektual rivoji uchun mustahkam asos yaratadi.

O'yin bolaning ijtimoiy-emotsional rivojlanishini ta'minlovchi muhim maydon hisoblanadi. O'yin jarayonida bolalarning bir-biri bilan muloqoti rag'batlantiriladi, kelishish, navbat kutish, sheriklik, rollarni taqsimlash va nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish ko'nikmalari shakllanadi. Shu bilan birga, ijobiy emotsiyalar rivojlanadi, stress kamayadi va bolaning o'ziga bo'lgan ishonchi mustahkamlanadi.

O'yin ijodkorlik va kreativ tafakkurni rivojlantirishning eng tabiiy manbaidir. Dramatizatsiya, rolli o'yinlar, ertak va fantaziya o'yinlari orqali ijodiy tasavvur kengayadi; qurilish, konstruktiv va turli materiallar bilan o'yinlar muhandislik fikrlashni rivojlantiradi; san'at va musiqa o'yinlari esa estetik didni shakllantiradi. Natijada bolalarda mustaqil g'oya yaratish va yangi yechim topish qobiliyati rivojlanadi.

O'yin jarayoni bolaga mustaqil tanlov imkonini berib, tashabbuskorlikni rivojlantiradi. Pedagog bolaga o'yin turini, materialni va rolni mustaqil tanlash imkonini berishi, o'yin jarayonini boshqarishdan ko'ra yo'naltirishi hamda tashabbuskor g'oyalarni qo'llab-quvvatlashi lozim. Bu bolaning shaxsiy faolligini oshiradi va o'ziga ishonchini kuchaytiradi.

Tarbiyachining metodik kompetensiyasi o'yin faoliyatining samarali tashkil etilishida muhim o'rin tutadi. Pedagog o'yinlarni maqsadga muvofiq tanlashi, mashg'ulot jarayonida interaktiv metodlardan foydalanishi, o'yin natijalarini tahlil qilishi va bolalarning rivojlanishini baholashi hamda individual yondashuvni amalga oshirishi zarur. Tarbiyachining metodik mahorati qanchalik yuqori bo'lsa, ta'lim jarayonining sifati shunchalik oshadi.

O'yin orqali ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish o'yin faoliyatining mazmunini ta'lim mazmuni bilan uyg'unlashtirish, bolalarda qiziqishni qo'llab-quvvatlash, interaktiv va innovatsion o'yin texnologiyalarini joriy etish hamda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni kuchaytirishni taqozo etadi. Natijada ta'lim jarayoni qiziqarli, jonli, samarali va bolaning yosh xususiyatlariga mos tarzda tashkil etiladi.

Maktabga tayyorlov ko'nikmalarini shakllantirishda ham o'yin muhim ahamiyat kasb etadi. O'yin bolani maktab o'quv faoliyati uchun psixologik va intellektual jihatdan tayyorlaydi: mantiqiy fikrlash, nutq rivoji, mayda motorika (yozuvga tayyorlov), vazifa bajarish ko'nikmasi, diqqatning barqarorligi, o'zini boshqarish va tartib-intizom kabi ko'nikmalar o'yin jarayonida shakllanadi. Bu esa bolaning maktabga moslashuv jarayonini sezilarli darajada yengillashtiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin orqali ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish hozirgi zamon pedagogikasining eng innovatsion va samarali yo'nalishlaridan biri bo'lib, u bolalarning tabiiy rivojlanish qonuniyatlariga, yosh psixologiyasi hamda fiziologiyasiga to'la mos keladi. O'yin bolaning hayot faoliyati, ta'lim jarayoni va shaxs sifatida shakllanishida markaziy o'rinni egallaydi. Aynan o'yin orqali bola tevarak-atrofni chuqurroq anglaydi, hissiy kechinmalarini ifoda etadi, mustaqil ravishda qaror qabul qilish va tanlov qilish, o'z tajribasidan foydalanish hamda yangi bilimlarni sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu ma'noda, o'yin bolalikning mazmuni va uning eng tabiiy o'rganish vositasi sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017-yil.
2. Qodirova F. R., Toshpo'latova Sh., A'zamova M. Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Ma'naviyat, 2013-yil.
3. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1993-yil.
4. Grosheva I. V., Yevstafyeva L. G., Maxmudova D. T., Nabixonova Sh. B., Pak S. V., Djanpiysova G. E. Ilk qadam. Maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o'quv dasturi. – Toshkent, 2018-yil.
5. Akbarova Sh. H. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tili leksikasini o'rgatish metodikasi. Dissertatsiya. – Toshkent, 2020-yil.
6. Zaynutdinova M. B., Mavlonov N. Sh. Nutqni tanishda ovozli interfeys texnologiyalaridan foydalaniladigan dasturiy mahsulotlar tahlili va istiqbollari. TATU Qarshi filiali Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari, 2018-yil 20–21-aprel, 340–341-betlar.
7. Valiyeva F. R., Qurbonov Sh. Continuity in the education system // Wschodnioeuropejskie – East European Science Journal, 2019-yil, 12(52), 45–52-betlar.
8. Kalmuratov T. N. Evaluation of the effectiveness of management of the activities of non-state pre-school educational organizations on the basis of public-private partnership // International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, Volume 9, Issue 9, September 2022, 336–340-betlar. ISSN 2364-5369. <http://ijmmu.com>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.